



JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDA MAHKUMLARNING IJTIMOIIY MOSLASHUV JARAYONINING FALSAFIY VA NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Nabiyev Nodirbek Alijonovich

Andijon davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarning ijtimoiy moslashuv jarayonining falsafiy mohiyati va nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda inson shaxsining o'zgarishi, jamiyatga qaytishdagi psixologik va axloqiy muammolar, hamda ijtimoiy institutlarning roliga e'tibor qaratiladi. Muallif rehabilitatsiya jarayonini ijtimoiy adolat, insonparvarlik, axloqiy qadriyatlar va huquqiy madaniyat nuqtai nazaridan yoritadi. Maqolada zamonaviy ijtimoiy-falsafiy yondashuvlar asosida qayta ijtimoiylashtirish mexanizmlari va imkoniyatlari ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy moslashuv, mahkum, rehabilitatsiya, falsafa, axloqiy qadriyatlar, jazoni ijro etish tizimi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются философская сущность и теоретико-методологические основы процесса социальной адаптации осуждённых в учреждениях исполнения наказаний. Исследование подчёркивает вопросы трансформации личности, психологические и моральные трудности возвращения к обществу, а также роль социальных институтов. Автор анализирует процессы ресоциализации с позиции справедливости, гуманизма, правовой культуры и нравственных ценностей. Представлены современные социально-философские подходы и механизмы эффективной адаптации осуждённых.

Ключевые слова: социальная адаптация, осуждённый, ресоциализация, философия, нравственные ценности, пенитенциарная система.

Annotation: This article examines the philosophical nature and theoretical-methodological foundations of the social adaptation process for inmates in correctional institutions. The study focuses on personality transformation, psychological and moral challenges of reintegration, and the role of social institutions in this process. The author analyzes rehabilitation within the frameworks of social justice, humanism, legal culture, and ethical values. Modern socio-philosophical approaches and mechanisms for effective resocialization and reintegration are presented.

Keywords: social adaptation, inmate, reintegration, philosophy, ethical values, correctional system

Mazkur maqolada jinoyatchilikni falsafiy bilimlar kontekstida shakllangan nazariy-metodologik yondashuvlari hamda ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning ijtimoiy-axloqiy moslashuvchanligi tadqiq etiladi. Jinoyatchilik va uni keltirib chiqaruvchi sabablarni tahlil etishga oid munozarali yondashuvlar, bu masalaning



zamon talablari doirasida ilmiy asoslashga ehtiyojlar borligini ko'rsatadi. Umuman olganda jinoyatchilikni o'rganishda tizimli yondashuvni qo'llashdan kelib chiqib, mazkur muammoni ijtimoiy hodisa sifatida nazariy ishlab chiqishga sezilarli hissa qo'shgan boshqa yondashuvlarni ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Zamonaviy O'zbekiston jamiyatida jinoyatchilikning o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda, uning sabab va oqibatlarini falsafa fanida to'plangan barcha ilmiy tajribalarga asoslanib tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, jazoni ijro etish joylarida shaxslarning ijtimoiy moslashuvi bugungi kunda eng muhim muammolardan biri sanaladi, chunki ularning keyingi hayot oqimi, mamlakatdagi huquqbuzarliklar darajasi va jinoyatchilik turlari, soni aynan mazkur muassasadagi ijtimoiy hayot tarzi, undagi axloqiy renessans darajasiga va aql sohibi bo'lib shakllanishiga bog'liqdir. Bu kabi obyektiv voqelik insonning ijtimoiy moslashuv muammosi bilan chambarchas bog'langan.

Ma'lumki, ayollar va erkaklardagi olamni idrok qilish sezilarli farqlarga ega bo'lib, bu nafaqat ayol va erkak jinoyatchiligining o'ziga xosligida, balki turli jins vakillarining ozodlikdan mahrum etish muassasalarida moslashuv xususiyatlarida ham namoyon bo'ladi. Shuning sababli, jinoyatchilikda ham gender jihatlar bu maskanda mahkumlarning ijtimoiy moslashuvchanlik xususiyatlarini ilmiy tahlil etishda dolzarblik kasb etadi.

Ijtimoiy hodisa sifatida jinoyatchilikning sabablari va omillarini tushuntirib beruvchi barcha tadqiqotlarning obyekti bu - uni butunlay yo'q qilishning imkoni bo'lma-da, jinoyatlar sonini, ularni jamiyatga tug'diradigan xavfi hamda zararini kamaytirishga qaratilgan. Jinoyatchilik, jinoyat kabi ijtimoiy-huquqiy hodisalarni kishilik hamjamiyatida keng tarqalganligi, ya'ni ular jamiyatda qabul qilingan, qadriyat sifatida tushuniladigan, uning ko'pchilik manfaatlarini himoya qiladigan, qo'llab-quvvatlanadigan tartib-qoidalarning ongli yoki ehtiyotsizlikdan buzilishi hamda uning keyingi rivojlanish jarayonlariga ta'siri qator soha olimlari va izlanuvchilarning ilmiy tadqiqoti uchun metodologiya vazifasiga aylangan.

Aslida, "jinoyatchilik" xodisasiga qadimgi Sharqda ham ta'limotlar asosida ilmiy hulosalar yaratilgan. Qadimgi manda "Avesto"da "yovuz niyat, so'z va amal - birligi



jinoyatning asosiy ildizi”⁵ sifatida uqtiriladi. Jinoyatchilikni faqatgina ijtimoiy hodisa sifatida emas, balki axloqiy ruhiy hastalik sifatida keltiriladi.

Sharq donishmand allomasi Imom Buxoriy ham o‘zining sahii hadislarida jinoyatchilikni “niyat va iymon zaifligidan kelib chiqadi”⁶ deb keltiradi. Bundan tashqari “uning oldini olishning yagona yo‘li - halollik va ilmdir”⁷, deya uqtiradi.

Buyuk sarkardalardan biri Jaloliddin Manguberdi jinoyatchilikni “vatan, xalq va vijdon oldidagi hiyonat”⁸ deb, butun millatni bir bo‘lishga adolat uchun kurashishga chaqiradi. Bu illatning ildizini “qo‘rqoqlik, nafs va vijdotsizlikda”⁹ deb biladi. U podsholarni ham adolatparvarlikka chaqirib, “Adolat qilmagan podshoh xalqiga zolim, xalqiga zulm qilgan esa dushmanga xizmat qilgan bo‘lur”¹⁰, deb ta’kidlaydi.

Jadid ma’rifatparvar bobolarimizdan biri Abdurauf Fitrat o‘zining “Axloq” va “Oila” asarida jinoyatchilikni avvalo, tarbiyani nomukammallik bilan bog‘lab “bolani yaxshi tarbiya qilmagan ota-onalar - ma’nan qashhoqdirlar, chunki ular kelajak jinoyatchilarini yaratadilar”¹¹, deb ta’riflaydi.

Bundan tashqari, zamonaviy o‘zbek falsafasida ham bir qator olimlar huquqbuzarlik va jinoyatchilikka o‘z qarashlarini ifoda etadilar. Jumladan, M.A.Ahmedova ta’kidlashicha, “bu odamlarning o‘z muammolarini jinoiy taqiqlarni buzish orqali ommaviy hal qilishidir”¹². Aynan ushbu hodisaning ommaviyligi bizni jinoyatchilikning falsafiy tabiatini ilmiy tadqiq etishga undaydi.

Faylasuf olim professor N.A.Shermuxeamedova o‘z qarashlarida inson mohiyatida har doim ikki intilish: yaratish va vayron qilish mavjudligini, shu bois insonning asosiy tanlovi yaratish yoki buzish, sevish yoki nafratlanishdan iborat ekanligini keltiradi. Olima shuningdek, insoniyat faoliyatida bugungi kunda qo‘rquv bilan guvoh bo‘layotgan vayronkorlikka intilish kuchi faqatgina uning tabiatiga xos bo‘lib, xuddi shuningdek unda yaratishga intilish ham ildiz otgan. Vayron qilish — bu insonning o‘z mohiyatiga singib

⁵ Nazarov B. *Avesto va o‘zbek ma’naviyati*. T., “Ma’naviyat”, 2001 y. B.23

⁶ G‘iyosov S. *Imom Buxoriy va axloqiy ta’limotlar*. Samarqand. “Buxoriy”, 2010 y. B.14.

⁷ Karimov A. *Hadis ilmi va huquqiy tafakkur rivoji*. T., “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”, 2012 y. B.65

⁸ Jo‘rayev N. *O‘rta asrlar Movarounnahr davlat boshqaruvi tizimi*. Samarqand, 2009 y. B.21.

⁹ Rasulov Sh. *Jaloliddin Manguberdi hayoti va siyosiy faoliyati*. T., “Fan”, 2015 y. B.31.

¹⁰ *Jaloliddin Manguberdi o‘gitlari va so‘zlari to‘plami*. T., “Ma’naviyat”, 2013 y. B.26.

¹¹ Abdurauf Fitrat. *Oila*. 1923 yil. B.15.

¹² Ahmedova M.A. *Falsafa. Darslik*. T., “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”. 2006 yil. B.484.



ketgan ikkilamchi potensial imkoniyat bo‘lib, har qanday ehtiros qadar kuch va intensivlikka ega bo‘lishi mumkin¹³.

Bu yondashuv – inson xulqini tushuntirishga oid ijtimoiy-falsafiy qarash bo‘lib, uning markazida individual tanlov turadi. Biroq, bu tanlov faqat shaxsiy xususiyatlar bilan emas, balki insoniyat jamiyatining sotsiomadaniy va tarixiy rivojlanish sharoitlari bilan ham belgilanadi. Demak, jinoyatchilik insoniyat mahsuli sifatida muayyan xususiyatlarga ega bo‘lib, uni ijtimoiy hodisa sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Bizni, avvalo, tadqiq etilayotgan muammoning falsafiy jihati qiziqtiradi, shu sababli biz ushbu ilmiy soha doirasida shakllangan yondashuvlarga to‘xtalamiz.

Falsafiy yondashuvlarga asosan ijtimoiy hodisa sifatida jinoyatchilikni tadqiq etish tizimli yondashlarga asoslangan. Tadqiqotchi olim A.I.Dolgova fikriga asosan, jinoyatchilikni tadqiq etishda tizimli versiyalarning ikki muhim xususiyatini o‘zaro bog‘lagan holda o‘rganish zarur. Birinchi, jinoyatchilikni murakkab ijtimoiy xodisa sifatida ko‘rib chiqish, uni harakatga keltiruvchi determinantlarini alohida qayd etish hamda ular orasidagi sababiyatni, ta’sir darajasini aniqlash. Ikkinchisi esa, jinoyatchilikni jamiyat dunyoqarashiga nisbatan umumiy tizimda o‘rganish. Masalan, u ta’sir qiladigan, vujudga keltiradigan hamda o‘zgarishlarga sabab bo‘luvchi ijtimoiy omillarni, tuzilmalarni aniqlash va buni jinoyatchilik bilan bog‘langanligini tahlil qilish¹⁴.

Tadqiqotchi olim A.M.Yakovlev¹⁵ ta’kidlashicha, biror jamiyatga xos bo‘lgan qonunga xiloflikni aniqlovchi eng muhim ijtimoiy tuzilmalarga quyidagilarni keltirish maqsadga muvofiq:

- jamiyatning ijtimoiy-madaniy tashkiloti;
- jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tashkiloti;
- barcha ijtimoiy institutlar;
- jamiyatni tashkil qiluvchi ijtimoiy guruhlar.

Har bir ijtimoiy voqeliklarni hamda hodisalarni ilmiy tadqiq etishning eng asosiy tamoyili bu - falsafiy tahlildir. Sababi esa, bunda tarkibiy qismlarni umumlashtirib bir yaxlitlik sifatida ko‘rib chiqishda barcha elementlarning ma’lum o‘ziga xosligi inobatga

¹³ Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi. Darslik. T., “Innovatsiya - Ziya”.. 2020. B. 261.

¹⁴ Долгова А.И. Исходные положения исследования территориальных различий преступности и их причин. С. 15-16.

¹⁵ Яковлев А.М. Социология преступности (криминология): основы общей теории. М., 2001.



olinadi. Falsafada nazariyalarning jamiyatga nisbatan muhim metodologik prinsipi shundan iboratki, bunda inson va uni o‘rab turgan olam uzviy aloqada o‘rganiladi.

Shu yo‘nalishda olim T.Parsons¹⁶ tizimli yondashuvlar taraqqiyotiga oid izlanishlar olib borib, u ijtimoiy tizimlar ochiq tizimlar ekanligini qayd etadi hamda ular tashqi olam bilan doimiy aloqadorlikda va ta’sirda bo‘lishini ta’kidlab o‘tgan. Shundan kelib chiqib, u ijtimoiy tizimning barqarorligini ta’minlash qonunlari faqat tizimning ichida kechayotgan jarayonlargina emas, balki tashqi muhitda yuz berayotgan faoliyatga bevosita ta’sir ko‘rsatayotgan xodisalarni ham hisobga olgan holda shakllantirilishi lozim, degan xulosaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Nazarov B. *Avesto va o‘zbek ma’naviyati*. T., “Ma’naviyat”, 2001 y. B.23
2. G‘iyosov S. *Imom Buxoriy va axloqiy ta’limotlar*. Samarqand. “Buxoriy”, 2010 y. B.14.
3. Karimov A. *Hadis ilmi va huquqiy tafakkur rivoji*. T., “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”, 2012 y. B.65
4. Jo‘rayev N. *O‘rta asrlar Movarounnahr davlat boshqaruvi tizimi*. Samarqand, 2009 y. B.21.
5. Rasulov Sh. *Jaloliddin Manguberdi hayoti va siyosiy faoliyati*. T., “Fan”, 2015 y. B.31.
6. *Jaloliddin Manguberdi o‘gitlari va so‘zlari to‘plami*. T., “Ma’naviyat”, 2013 y. B.26.
7. Abdurauf Fitrat. *Oila*. 1923 yil. B.15.
8. Ahmedova M.A. *Falsafa. Darslik*. T., “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”. 2006 yil. B.484.
9. Shermuxamedova N.A. *Inson falsafasi. Darslik*. T., “Innovatsiya - Ziyo”.. 2020. B. 261.
10. Долгова А.И. Исходные положения исследования территориальных различий преступности и их причин. С. 15-16.

¹⁶ Парсонс Т. Функциональная теория изменения



11. Яковлев А.М. Социология преступности (криминология): основы общей теории. М., 2001.
12. Парсонс Т. Функциональная теория изменения

